


VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga 37045 tasi tashkil etib, ulardan 35617 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9869 taga yoki 36,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyun oylarida davomida viloyatimizda 6637 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4027 taga ko'pdir.


Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi
(2021- yil 1- iyul holatiga)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	37045	100,0	35617	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7083	19,1	6768	19,0
Sanoat	4857	13,1	4638	13,0
Qurilish	3578	9,7	3442	9,7
Savdo	9934	26,8	9564	26,9
Tashish va saqlash	1015	2,7	985	2,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1938	5,2	1832	5,1
Axborot va aloqa	425	1,1	409	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	750	2,0	739	2,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7465	20,3	7240	20,3


Korxonalar va tashkilotlar soni

	2021- yil 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan	2021- yil yanvar-iyun oylarida	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	37045	6637	701
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	7226	1031	148
Shahrisabz	2095	299	67
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	1827	366	26
Dehqonobod	1802	341	11
Qamashi	2692	684	56
Qarshi	2701	406	58
Koson	2763	403	45
Kitob	2620	560	53
Mirishkor	1354	281	13
Muborak	1269	217	25
Nishon	1610	325	9
Kasbi	1601	332	55
Chiroqchi	3027	480	39
Shahrisabz	1936	407	59
Yakkabog'	2522	505	37


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga, *birlikda*)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- iyun oylarida)**



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga 30 832 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 10 116 ta, oilaviy korxonalar – 3 967 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 996 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 46 ta, unitar korxonalar – 148 ta va boshqalar – 559 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida 6637 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 marta ko'prog'ini.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3203 ta, oilaviy korxonalar 1935 ta, xususiy korxonalar 1240 ta, muassasalar 91 ta va boshqalar 168 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- iyul holatiga 4181 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2503 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3967 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2363 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 214 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 140 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Shahrisabz (283 ta), G'uzor (231 ta), Kitob (229 ta), Qarshi shahri (225 ta), Qarshi (221 ta), Chiroqchi (199 ta), Mirishkor (112 ta), Dehqonobod (109 ta), Koson (90 ta), Muborak (55 ta), Yakkabog' (48 ta), Shahrisabz shahar (44 ta), va Qamashi (44 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Nishon (29 ta), Kasbi (16 ta), tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga 16529 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4674 taga yoki 39,4 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15996 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4503 taga yoki 39,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1734 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1049 taga yoki 2,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- iyul holatiga, birlikda)




2021- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyati ulushi Qarshi shahrida 23,9 %, Koson 10,4 %, Qamashi 9,1 %, Chiroqchi 7,7 %, Yakkabog' 6,8 %, Qarshi 6,3 %, Kasbi 4,9 %, Mirishkor 4,7 %, Kitob 4,5 %, Nishon 4,4 %, Muborak 4,4 %, G'uzor 4,1 %, Shahrisabz shahrida 4,0 %, Shahrisabz 3,2 %, Dehqonobod tumanlarida 1,7 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonona</i>	<i>Xorijiy korxonona</i>
Qashqadaryo viloyati	232	161	71
G'uzor	13	10	3
Dehqonobod	13	10	3
Qamashi	14	10	4
Qarshi	17	11	6
Koson	23	14	9
Kitob	20	12	8
Mirishkor	5	3	2
Muborak	9	6	3
Nishon	16	13	3
Kasbi	8	5	3
Chiroqchi	12	10	2
Shahrisabz	6	4	2
Yakkabog'	15	8	7
Qarshi sh.	55	43	12
Shahrisabz sh.	6	2	4

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma‘lumotlarni 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘rsak eng ko‘p sanoatda 109 ta (47,0%), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 46 ta (19,8%) hamda savdoda 40 ta (17,2 %), qurilishda 11 ta (4,7 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda mos ravishda 8 ta (3,4%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlash 5ta (2,2 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 4 ta (1,7%), axborot va aloqa 1 ta (0,4 %) ni tashkil qilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyat turiga to‘g‘ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, tashish va saqlash faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2021- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- iyul holatiga, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- iyul holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	30 644	29 407	1 237
G'uzor	1 508	1 445	63
Dehqonobod	1 506	1 485	21
Qamashi	2 306	2 252	54
Qarshi	2 244	2 148	96
Koson	2 365	2 311	54
Kitob	2 210	2 102	108
Mirishkor	1 092	1 071	21
Muborak	1 029	996	33
Nishon	1 299	1 247	52
Kasbi	1 290	1 242	48
Chiroqchi	2 499	2 425	74
Shahrisabz	1 551	1 500	51
Yakkabog'	2 058	2 001	57
Qarshi sh.	5 938	5 529	409
Shahrisabz sh.	1 749	1 653	96

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- iyul holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.